

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

BD-5120100 - 31

2016-yil 8 08



Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi

2016-yil 25 08

**ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI  
FAN DASTURI**

Bilim sohasi	100000	- Gumanitar soha
Ta'lim sohasi	120000	- Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120100	- Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Toshkent - 2016

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "25" 08-dagi 355-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvoqiqlashtiruvechi kengashining 2016-yil "8" 08-dagi "3"-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzovchilar

A.Ulug'ov

Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

B.Karimov

Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori

#### Taqribchilar

I.Toshmuhammedova

- O'zMU jurnalistika fakul'teti uslubiyat va tahrir kafedrasi mudiri, dotsent, filologiya fanlari nomzodi

J.Jo'raqulov

- Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fanning o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-metodik kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil 29-avgustdaggi 1-sonli bayonnoma).

#### Fanning dolzarbligi

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, adabiyotning tabiiy va ijtimoiy fanlar va san'atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabilar to'g'risida ma'lumot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida ta'kidlanganidek, har bir xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ona tili va adabiyotimiz xalqimizning milliy ruhi va o'zligining asosi ekanini hisobga olgan holda, ta'lim-tarbiya tizimida yoshlarning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash maqsadida o'zbek adabiyoti namunalarini ilmiy-estetik asosda o'rganish dolzarb muammodir.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlarning badiiy-estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o'rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.

Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlар kabilar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san'atshunoslik yo'nalishidagi fanlar bilan uzviy bog'langan.

#### Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Mazkur fan adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, jahon adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayon, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, falsafa fanlarida o'rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog'langan.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish

sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

### Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalarda adabiyotshunoslik fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, badiiy asarlarni ilmiy-estetik tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzARB masalalari talabalarga mustaqil ta'lIM sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniadi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning "bumerang", "matbuot konferensiyasi" singari ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

### Fan modulining dasturi (module syllabus)

O'quv kursining to'liq nomi	Adabiyotshunoslik nazariyasi	
Kursning qisqacha nomi	AN	Kod: AN
Kafedra nomi:	Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon	
O'qituvchi haqida ma'lumot:	Ulug'ov Abdulla O'zbekovich Karimov Bahodir Nurmetsovich	abdullaulugov @mail.ru bah0_karim@y axoo.com

Semestr va o'quv kursining davomiyligi	1- va 7-semestr, 30 hafta			
	Jami:	222		
	shuningdek:			
O'quv soatlari hajmi:	Ma'ruza	54		
	Seminar	42		
	Amaliy	40		
	Mustaqil ta'lIM	86		
O'quv kursining statusi	Umumkasbiy fanlar bloki			
Dastlabki tayyorgarlik	Kurs "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.			
<b>Fanning predmeti va mazmuni:</b> "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlarning badiiy-estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o'rtasidagi farqlarni ajratish kabilalar bilan belgilanadi.				
Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlar kabilalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.				
Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san'atshunoslik yo'nalishidagi fanlar bilan uzviy bog'langan.				
<b>Fanni o'qitishdan maqsad:</b> Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni turli metodlar asosida har tomonlama ilmiy-estetik tahlil qilish, jahon adabiyotshunosligidagi metodlarni adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.				
<b>Fanning vazifasi:</b> adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish; adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini o'rgatish; badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qilishni tushuntirish; adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish; o'zbek adabiyotshunoslarning maqola,				

taqrizlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rgatish; talabaga san'at asarlarini his qilishini o'rgatish.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. "Adabiyotshunoslikka kirish" fani bo'yicha bakalavr talaba adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo'nalish, oqimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi *haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak*. Ushbu fan yuzasidan bakalavr talaba lirk, epik, dramatik janrlar, she'r tuzilishi, san'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarni *bilishi va ulardan foydalana olishi lozim*. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

#### Kursning tematik tarkibi va mazmuni

Nº	Mayzular	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim
<b>1-semestr</b>					
1.	Adabiyotshunoslik - badiiy adabiyot to'g'risidagi fan.	2			
2.	Adabiyotshunoslik tarixi.	2	2		
3.	Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik				8
4.	Arastuning "Poetika" asari.		2		2
5.	"Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobidagi maqolalar tahlili.			4	

6.	Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik				8
7.	Fitrat - adabiyotshunos.			2	
8.	Forobiyning "She'r san'atii" asarini o'qib o'rganish				2
9.	Joriy nazorat (JN)				
10.	Badiiy asar.	2	2		
11.	Alisher Navoiyning "Majolis un nafois" asarini o'qib o'rganish				4
12.	Badiiy asar kompozitsiyasi.	2	2		
13.	Alisher Navoiyning "Mezon ul avzon" asarini o'qib o'rganish				2
14.	Badiiy asar syujeti.	2			
15.	Alisher Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayn" asarini o'qib o'rganish				2
16.	Cho'lpionning adabiy-tanqidiy maqolalari tahlili.			2	
17.	Badiiy asar mavzusi.	2			
18.	Oybek adabiyotshunos.		2		
19.	Boburning "Muxtasar" asarini o'qib o'rganish				2
20.	Oraliq nazorat (ON)				
21.	Obraz - insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri.	2			

22	Fitratning "Adabiyot qoidalari", "Aruz haqida" asarini o'qib o'rganish				2
23	She'r tuzilishi va she'r tizimlari.	4			
24	Aruz she'r tizimi.	2			
25	U.Normatovning "Qodiriy mo'jizasi" kitobini o'qib o'rganish				2
26	Navoiy she'rleridagi badiiy san'atlar.			2	
27	I.G'afurovning "Mangu latofat" kitobini o'qib o'rganish				4
28	Bobur she'rlerida qofiya va radif.			2	
29	Badiiy asar tili.	2	2		
30	Yo.Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobini o'qib o'rganish				2
31	Ijodiy metod va ijodkor uslubi.	2	2		
32	O.Sharafigdinovning "Dovondagi o'ylar" kitobini o'qib o'rganish				4
33	Izzat Sulton - adabiyotshunos.		2		
34	"Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar" o'quv qo'llanmasini o'qib o'rganish				4
35	Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-nazariy qarashlari.			2	

36	Ozod Sharafiddinovning adabiy - tanqidiy qarashlari.			2	
37	Og'zaki va yozma adabiyot namunalari tahlili.			2	
38	Adabiy tur va janrlar.	2		2	
39	Badiiylik - adabiyotning asosiy xususiyati.	2			
	Joriy nazorat (JN)				
40	Badiiy asar tahlili (she'r, hikoya matni tahlil qilinadi).			2	
41	Cho'lpox she'rlerida ijtimoiy voqelik talqini.			2	
42	G'afur G'ulom she'rlerida falsafiylik.			2	
43	A.Oripov she'rlerida Vatan mavzusi talqini.			2	
44	Adabiy jarayon.	2			
45	Umarali Normatovning adabiy-tanqidiy maqolatlari tahlili.			2	
	Yakuniy nazorat (YaN)				
	1-semestr jami:	30	22	24	48
	7-semestr				
1.	Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida.	2			
2.	San'at - estetik hodisa.	2			
3.	Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik				4

4.	Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan.	2				
5.	Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik				4	
6.	Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.		2			
7.	Sharq adabiyotshunosligining o'ziga qirralari					
8.	G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.		2			
9.	Adabiyotning spetsifikasi.	2				
10.	G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga oid manbalarni o'qish.				2	
11.	Adabiyotning funksiyasi.			2		
12.	Adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik.	2				
13.	Badiiylik mezonlari				2	
14.	Badiiy adabiyot va folklor munosabati.		2			
15.	Adabiyotda shakl va mazmun.	2				
16.	Obrazli tafakkur tabiatı.				2	
17.	Obraz poetikasi.	2				
18.	Obraz, xarakter, tip: umumiylilik va o'ziga xoslik.				2	
19.	Badiiy obraz darajasi.		2			
	Joriy nazorat (JN)					

20	Badiiy asar g'oyasi, mavzusi va estetik ideal.			2	4
21	Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasidagi umumiylilik.				2
22	Badiiy asar xronotopi.	2			2
23	Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi. Aruz vazni, barmoq vazni: nazariy adabiyotlar.				2
24	Poetik nutq va uslub.	2			2
25	Badiiy asar tili va poetik nutq masalasi.				2
26	Adabiy tur va janrlar nazariyasi.	2			2
27	Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.				2
28	Roman janriga xos xususiyatlar muhokamasi.		2		2
29	Qissa janri va qissaxonlik.			2	2
30	Badiiy ijod psixologiyasi.				2
	Oraliq nazorat (ON)				
31	Lirik tur spetsifikasi. Dramatik tur, tragediya va tragikkomediya.			2	4
32	Badiiy ijod va irratsional tafakkur.				2
33	Nasriy asarda ritm. Saj haqida.		2		2
34	Adabiyotda an'ana va novatorlik.				2

35	Ijodkor dunyoqarashi va ijodkor laboratoriysi.	2				
36	Ijodiy metod va adabiy oqim masalasi.					4
37	Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari.	2				
38	She'riy san'atlarni farqlash va aniqlash amaliyoti. She'r vazniga doir amaliy mashg'ulot.		2			
39	Badiiy asar pafosi muhokamasi.		2			
	<b>Joriy nazorat (JN)</b>					
40	Hajviy tafakkur tabiat, satira va humor.			2		
41	Muallif, badiiy asar va jamiyat munosabati tahlili.		2			
42	Ijodiy metod va adabiy oqimlar.			2		
43	Postmodernizm va intertekstuallik.					2
44	Adabiy – tarixiy jarayonda an'ana va yangilanish.			2		
45	Adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon munosabati			2		
	<b>Yakuniy nazorat (YN)</b>					
<b>7-semestr jami:</b>		24	18	18	38	
<b>Ta'lif berish va o'qitish uslubi:</b>		Ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlar va mustaqil ta'lif (aylana stol, master-klass, matbuot konferensiya)				
<b>Mustaqil ishlar:</b>		Savol-javoblar, matbuot konferensiya				

Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqtি	Kunlar	Vaqti	Auditoriya
1.			
2.			
3.			
<b>Bilimlarni baholashusullari, mezonlari va tartibi</b> JN va ONning ballari ishchi dasturda beriladi	<b>Baholash usullari</b> Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash	Og'zaki so'rov, yozma ishlар	<b>Nazorat shakllari</b>
			Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda og'zaki savol-javob, yozma ish, test yoki boshqa ko'rinishda o'tkazilishi mumkin
	<b>Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash</b>	<b>Talabaning bilim darajasi</b>	
	<b>Ball</b>		<ul style="list-style-type: none"> <li>– talaba mashg'ulotlarni doimo tayyorlagan, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qaror qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi;</li> <li>– talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimni topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarini topa oladi, o'quv materialining mohiyatini tushunadi;</li> <li>– talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi.</li> </ul>
	<b>86-100 ball</b>		

## ASOSIY QISM

### “Adabiyotshunoslikka kirish” qismi

#### Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

##### 1-modul. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to‘g‘risidagi fan

Adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Badiiy asar – adabiyotshunoslik ob‘yekti. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, manbashunoslik. Adabiyotshunoslik va adabiy jarayon. Inson – adabiyotning asosiy ob‘yekti.

##### 2-modul. Adabiyotshunoslik tarixi

Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu – adabiyotshunos. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade’. Tazkiralari – Sharq adabiyotshunosligining muhim manbasi. G‘arb adabiyotshunosligi. Bualo, Belinskiy tadqiqotlari. Gegel “Estetika”si. Adabiyotshunoslik rivojida matbuotning o‘rnii. Adabiyotshunoslikning estetik did va ijtimoiy fikr o‘sishiga ta’siri.

##### 3-modul. Badiiy asar

Badiiy asar va ilmiy asar. Ijtimoiy hayot va badiiy asar. Xalq og‘zaki ijodi – badiiy adabiyot ibtidosi. Folklor namunalari va yozma adabiyot. Matn – asar asosi. Badiiy asar tarkibiy qismlari. Epik turga mansub asarlarning tuzilishi. Lirik (she’riy) turga oid asarlar tarkibining o‘ziga xosliklari. Drama turidagi asarlarning tarkibi.

##### 4-modul. Badiiy asar kompozitsiyasi

Badiiy asarda shakl va mazmun. Kompozitsiya – badiiy asar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq joylashishi. Badiiy asar kompozitsiyasi va arxitektonikasi. Adabiy qahramon portreti. Peyzaj. She’riy asarlar kompozitsiyasi. Epik asarlar kompozitsiyasi. Sharq va G‘arb she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari. An’anaviy va modern

71-85 ball

55-70 ball

0-54 ball

ga doir video ma’ruza lar, vide  
sariylar. Atamalar  
sariylar. Atamalar  
orot resurs baza:  
folklor:

asarlar kompozitsiyasi. Mumtoz drama, tragediya, komedyalar kompozitsiyasi.

### 5-modul. Badiiy asar syujeti

Syujet – qahramonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealarning muayyan voqealar jamlamasi. Badiiy asarda syujetning o‘rni va ahamiyati. Hayot voqeligi – syujet asosi. Syujet tarkibiy qismlari: voqealar tuguni, voqealar rivoji, voqealar avj nuqtasi, voqealar yechimi. Syujetda badiiy to‘qima. Sayyor syujetlar. Xronikal syujetli asarlar. Ko‘p tarmoqli syujetli asarlar. Epik, lirik asarlarda syujet. Drama turiga mansub asarlarda syujet.

### 6-modul. Adabiy tur va janrlar

Adabiy turlar va janrlarning so‘z san’atidagi o‘rni va ahamiyati. Badiiy asarlar hayot voqeligi va inson obrazini gavdalantirishiga ko‘ra epos, lirika, drama turiga ajratilishi. Har bir tur janrlarga bo‘linishi. Epos, lirika, drama turidagi asarlarning she’riy yoki nasr yo‘lida yozilishi. Folklor va yozma adabiyotdagi janrlar.

### 7-modul. Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati

Badiiylik – san’at asosi. Tabiatdagi go‘zallik va san’atdagi go‘zallik. Badiiy adabiyotda hayot voqeligi va inson obrazi so‘z orqali nafis tasvirlanishi. Badiiylik – asar mazmuni va shaklining mutanosibligi, uslubining ravonligi, komponentlarining o‘zaro uyg‘un kelishi, tilining jozibadorligi kabi omillar jamlamasi. So‘z – adabiyotning asosiy quroli. Badiiy asar matnida so‘z. Badiiylik – obrazlilik. Obraz, obrazlilik, ramz, majoz. Badiiylik – ijodkor mahorati mezoni. Badiiylikning epik, lirik asarlarda namoyon bo‘lishi. Drama turidagi asarlarda badiiylikning aks etishi.

### 8-modul. Badiiy asar mavzusi

Mavzu – badiiy asarda e’tibor qaratilgan muayyan voqelik. Hayot voqeligi – badiiy asarlar uchun asosiy mavzu. Adabiyotdagi abadiy va

davriy mavzular. Mavzuning yoritilishi. Badiiy asar uchun tarixiy voqelik va zamonaviy hayot muammolarining mavzu qilib olinishi.

### 9-modul. Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri

Obraz – san’atga xos hodisa. Adabiyotda obrazning aks etishi. Inson – adabiyotdagi asosiy obraz. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim unsuri.

### 10-modul. She’r tuzilishi va she’r tizimlari

She’r va nasr. She’riy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari. She’rning tarkibiy qismlari: misra, band, ritm, bo‘g‘in, turoq, vazn, qofiya. She’r tizimlari: aruz, barmoq. Erkin, sarbast, oq she’r. Sharq adabiyotidagi she’riy janrlar. G‘arb adabiyotidagi she’riy janrlar.

### 11-modul. Aruz she’r tizimi

Aruz – Sharq mumtoz she’riyatidagi asosiy tizim. Aruz – qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanib kelishiga asoslangan metrik she’r tizimi. Aruzdagи ritmik birliklar: hijo, rukn, bahr.

### 12-modul. Badiiy asar tili

Badiiy asar tili va ilmiy asar tili. Obrazlilik – badiiy asar tili asosi. Badiiy san’atlar: ma’naviy, lafziy san’atlar. Muallif nutqi. Qahramon nutqi: dialog va monolog. Personajlar portreti tasviri.

### 13-modul. Ijodiy metod va ijodkor uslubi

Ijodiy metod – hayot hodisalarini tanlash va ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo‘li. Realizm va romantizm ijodiy uslubi. Klassitsizm yo‘nalishi. Naturalizm, sentimentalizm, surrealizm yo‘nalishi. Ijodkor uslubi.

## **14-modul. Adabiy jarayon**

Ijtimoiy hayot adabiyot va san'atning bog'liqligi. Qadimda adabiy jarayon. Adabiy an'ana va novatorlik. Adabiy jarayondagi yetakchi jihatlarning namoyon bo'lishi. Adabiy jarayonning davomiyligi.

### **"Adabiyot nazariyasi" qismi**

## **15-modul. Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida**

Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'rni; Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari bilan aloqasi.

## **16-modul. San'at – estetik hodisa**

San'atning tabiatи va turlari. San'atda inson ruhiyati masalasi. Adabiyot – so'z san'ati. Adabiyotning asosiy quroli so'z ekanligi. San'atning boshqa turlari bilan badiiy adabiyotning munosabati. Badiiy adabiyotda so'zning maqomi va tasvir imkoniyatlari.

## **17-modul. Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan**

Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poetika asoslari; g'arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.

## **18-modul. Adabiyotning spetsifikasi**

Adabiyotning o'ziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o'zaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olami tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuyg'ulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

## **19-modul. Adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik**

Adabiyotning umuminsoniy mohiyati; har qanday badiiy asar muayyan milliy zaminda yaratilishi; badiiy asar tabiatida xalqning orzu-armonlari, dardi, ruhiyatining aks etishi; adabiyotda individuallikning ilmiy-nazariy tavsifi.

## **20-modul. Adabiyot shakli va mazmun**

Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi badiiylikning eng muhim mezoni sifatida; poetik shaklning o'zgarib borishi; shaklbozlik muammosi; badiiy asarning shakli va mazmuniga oid poetik unsurlar masalasi; mavzular tavsifi; mazmun va g'oya munosabati; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning badiiy asar takribidagi poetik funksiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.

## **21-modul. Obraz poetikasi**

Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqini; obrazlarning turli nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylig va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va so'z; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi – maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; syujet va obraz munosabati.

## **22-modul. Badiiy asar xronotopi**

"Xronotop"ning lug'aviy va istilohiy ma'nosi; badiiy asarda epik tafakkur ko'lami; voqelik kechadigan makonning cheksizligi; adabiy makonga xos xususiyatlar; adabiy zamonning shartlanganligi; badiiy asarda makon va zamon uyg'unligi.

## **23-modul. Poetik nutq va uslub**

Poetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; dialogik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsiyonallik; nasriy asar ritmi.

Badiiy nutq mezoni. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos belgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilma-xilligi. Uslubdagi individuallik.

#### 24-modul. Adabiy tur va janrlar nazariyasi

Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlarning paydo bo'lish masalasi. Adabiy janrga xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirika va insonnning ruhiyati, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida. Lirizm va dramatizm. Satira va humor mustaqil ijod turi sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unlik. Tragikomediya.

#### 25-modul. Ijodkor dunyoqarashi va ijodkor laboratoriysi

Ijodkor dunyoqarashining badiiy asarda aks etishi. Dunyoqarash va ijodiy mteodlarning o'zaro aloqadorligi. Romantizm va uning turlari. Romantizmda orzu-umidlar yoki tasavvurlar aks etishi. Realizm – haqqoniy tasvir. Modernizmning ichki oqimlari: ekzistensializm, simvolizm, futurizm, surrealizm, postmodernizm va boshqalar. Juhon "men"iga xos xususiyatlar; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodli ijodkor poetik olamining mahsuli sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asarda aks etishi

#### 26-modul. Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari

Badiiy did masalasi; retsepcion estetikaning mohiyati xususida; badiiy asarni qabul qilishda yosh psixologiyasi; germenevtik tafakkur tarzi; badiiy asarni tushunish va tushuntirish yo'llari xususida; badiiy asarni poetik tahlil etish usuli.

#### Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot talabalarni adabiyotshunoslik nazariyasiga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan

bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar adabiyotshunoslik nazariyasi fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlarini, badiiy asar shakli va mazmuniga doir ilmiy masalalarni o'rganadilar.

#### "Adabiyotshunoslikka kirish" qismi bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Adabiyotshunoslik tarixi.
2. Arastuning "Poetika" asari
3. Badiiy asar.
4. Badiiy asar kompozitsiyasi.
5. Cho'lponneung adabiy-tanqidiy maqolalari tahlili.
6. Oybek – adabiyotshunos.
7. Badiiy asar tili.
8. Ijodiy metod va ijodkor uslubi.
9. Izzat Sulton – adabiyotshunos.
10. Og'zaki va yozma adabiyot namunalari tahlili.
11. Badiiy asar tahlili (she'r, hikoya matni tahlil qilinadi).

#### "Adabiyot nazariyasi" qismi bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
2. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
3. Badiiy adabiyot va folklor munosabati.
4. Badiiy obraz darajasi.
5. Roman janri xos xususiyatlar muhokamasi.
6. Nasriy asarda ritm. Saj haqida.
7. She'riy san'atlarni farqlash va aniqlash amaliyoti.
8. She'r vazniga doir amaliy mashg'ulot.
9. Badiiy asar pafosi muhokamasi
10. Ijodiy metod ustidagi bahslar.
11. Muallif, badiiy asar va jamiyat munosabati tahlili.

**Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

## Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni adabiyotshunoslik nazariyasiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar adabiyotshunoslik nazariyasining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

**"Adabiyotshunoslikka kirish" qismi bo'yicha seminar  
mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Arastuning "Poetika" asari tahlili.
2. "Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobidagi maqolalar tahlili.
3. Fitrat – adabiyotshunos.
4. Navoiy she'rlaridagi badiiy san'atlar.
5. Bobur she'rlarida qofiya va radif.
6. Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-nazariy qarashlari.
7. Ozod Sharafiddinovning adabiy-tanqidiy qarashlari.
8. Adabiy tur va janrlar.
9. Cho'pon she'rlarida ijtimoiy voqelik talqini.
10. G'afur G'ulom she'rlarida falsafiylik.
11. A.Oripov she'rlarida Vatan mavzusi talqini.
12. Umarali Normatovning adabiy-tanqidiy maqolalari tahlili.

**"Adabiyot nazariyasi" qismi bo'yicha seminar mashg'ulotlari  
uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Adabiyotning funksiyasi.
2. Badiiy asar g'oyasi, mavzusi va estetik ideal.
3. Badiiy asar tili va poetik nutq masalasi.
4. Qissa janri va qissaxonlik.
5. Lirik tur spetsifikasi.
6. Dramatik tur, tragediya va tragikomediya.
7. Hajviy tafakkur tabiat, satira va humor.
8. Ijodiy metod va adabiy oqimlar.
9. Adabiy – tarixiy jarayonda an'ana va yangilanish.
10. Ijodkor laboratoriysi muammolari.
11. Adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon munosabati.

**Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalananish tavsiya etiladi.

## Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

## Kurs ishini tashkil etish

Kurs ishini yozish 4-kursning 7-semestriga mo'ljallangan bo'lib, unda kurs bo'yicha o'tilgan barcha mavzularni o'z ichiga qamrab oladi va talabalarga taqdim etiladi.

## "Adabiyot nazariyasi" qismi kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Kurs ishining maqsadi talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdir.

O'tilgan mashg'ulotlar asosida quyidagi kurs ishi mavzulari tavsiya etiladi:

1. Adabiyotning adabiy-estetik tabiat.
2. Adabiyotning ijtimoiy mohiyati.
3. Badiiy adabiyot – so'z san'ati sifatida.
4. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan.
5. Adabiyot nazariyasi va boshqa fanlar munosabati.
6. Adabiy jarayon bilan adabiyot nazariyasi munosabati.
7. Adabiyot va mafkura munosabati.
8. Badiiy adabiyotda zamonaviylik.
9. Badiiy adabiyotda tarixiylik tamoyili.
10. Badiiy asarning umrboqiyligi masalasi.
11. Adabiyotda estetik kategoriyalar.
12. Badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasi.
13. Hayotiy voqeja va badiiy to'qima.
14. Badiiy obraz tasnifi.
15. Obraz va prototip munosabati.
16. Badiiy obraz turlari: xarakter va personaj.
17. Badiiy adabiyot va mifologik tafakkur.

18. Didaktik adabiyot tabiatı.  
 19. Fantastik adabiyot tabiatı.  
 20. Badiiy asar pafosi.  
 21. Badiiy asarda shakl va mazmun uyg'unligi.  
 22. Badiiy asar tili.  
 23. Badiiy ijod va ruhiyat masalasi.  
 24. Badiiy asarda mavzu va g'oya.  
 25. Syujet va kompozitsiya.  
 26. Struktural poetika.  
 27. Konflikt va uning turlari.  
 28. Sayyor syujetlar masalasi.  
 29. Syujetning tarkibiy qismlari.  
 30. Badiiy asarda psixologizm.  
 31. Badiiy asarda polifonizm.  
 32. Badiiy asar xronotopi.  
 33. Badiiylik mezonlari.  
 34. Qahramon portreti.  
 35. Badiiy asarda peyzaj.  
 36. Badiiy tasvir vositalari.  
 37. Ma'naviy san'atlar.  
 38. Lafziy san'atlar.  
 39. Poetik nutq masalasi.  
 40. Badiiy asar tili.  
 41. So'z va obraz munosabati.  
 42. Ijodkor uslubi.  
 43. Monolog va dialog.  
 44. She'r vaznlar tasnifi.  
 45. Aruz she'r tizimi.  
 46. Barmoq she'r tizimi.  
 47. Qofiya ilmi.  
 48. Sharq she'riyatida asosiy janlar.  
 49. G'azal poetikasi.  
 50. Ruboiy va tuyuq.  
 51. Qit'a va fard.  
 52. Qasidanavislik tarixi.  
 53. Sarbast va erkin she'r.  
 54. Sonetga xos nazariy xususiyatlar.  
 55. Doston va poema muammosi.  
 56. Adabiy turlar masalasi.
57. Epik tur janrlari haqida.  
 58. Roman janri va uning tasnifi.  
 59. Qissa va povest masalasi.  
 60. Hikoya va novella masalasi.  
 61. Esse va badiaga xos nazariy jihatlar.  
 62. Badiiy asarda konflikt.  
 63. Lirik turga xos xususiyatlar.  
 64. Kichik lirik janrlar.  
 65. Lirik qahramon ruhiyati.  
 66. Dramatik tur tabiatı.  
 67. Drama janri tavsifi.  
 68. Tragediya janri tarixi.  
 69. Komediya xos xususiyatlar.  
 70. Tragikomediya tabiatı.  
 71. Satira va yumorining asosiy nazariy belgilari.  
 72. Ijodiy metod masalasi.  
 73. Ijodiy uslub muammosi.  
 74. Romantizm metodi tavsifi.  
 75. Realizm metodi tavsifi.  
 76. Essening jann xususiyati.  
 77. Sentimentalizm.  
 78. Simvolizm.  
 79. Formalizm.  
 80. Modernizm.  
 81. Strukturalizm.  
 82. Postmodernizm.  
 83. Adabiyotshunoslikdagi metodlar.  
 84. Adabiyotshunoslikda talqin usullari.  
 85. Biografik jann va biografik metod.  
 86. Psixologik tasvir unsurlari.  
 87. Adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalasi.  
 88. Adabiy jarayon va kitobxon ruhiyati.

#### **Mustaqil ta'limiň tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakklardan foydalanish tavsija etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;

- darslik va o‘quv qo’llannalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari.

**“Adabiyotshunoslikka kirish” qismi bo‘yicha mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya qilinadi:**

1. Aristotelning “Poetika” asarini o‘qib o‘rganish.
2. Forobiyning “She’r san’ati” asarini o‘qib o‘rganish.
3. Alisher Navoiyning “Majolis un nafois” asarini o‘qib o‘rganish.
4. Alisher Navoiyning “Mezon ul avzon” asarini o‘qib o‘rganish.
5. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lug‘atayn” asarini o‘qib o‘rganish.
6. Boburning “Muxtaras” asarini o‘qib o‘rganish.
7. Fitratning “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” asarlarini o‘qib o‘rganish.
8. U.Normatovning “Qodiriy mo‘jizasi” kitobini o‘qib o‘rganish.
9. I.G‘afurovning “Mangu latofat” kitobini o‘qib o‘rganish.
10. Yo.Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” kitobini o‘qib o‘rganish.
11. O.Sharafiddinovning “Dovondagi o‘ylar” kitobini o‘qib o‘rganish.
12. “Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar” o‘quv qo’llanmasini o‘qib o‘rganish.

**“Adabiyot nazariyasi” qismi bo‘yicha mustaqil ta’lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:**

1. Sharq adabiyotshunosligining o‘ziga xos qirralari.
2. G‘arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga oid manbalarni o‘qish.
3. Badiiylik mezonlari.
4. Obrazli tafakkur tabiatni.
5. Obraz, xarakter, tip: umumiylilik va o‘ziga xosliklar.
6. Ijtimoiy g‘oya va badiiy g‘oya o‘rtasidagi umumiylilik.

7. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi. Aruz vazni, barmoq vazni: nazariy adabiyotlar.
8. Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.
9. Badiiy ijod psixologiyasi.
10. Badiiy ijod va irratsional tafakkur.
11. Adabiyotda an’ana va novatorlik.
12. Ijodiy metod va adabiy oqim masalasi.
13. Postmodernizm va intertekstuallik.

**Izoh:** Tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta’lim uchun uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

### Dasturning axborot-uslubiy ta’minoti

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Muammoli ta’lim” texnologiyasining “Munozarali dars” metodidan foydalanish nazarda tutiladi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

#### Asosiy adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.
3. Terry Egerton. Theory literature. – London, 2010.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007.

#### Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston, 2009.
3. Islom Karimov. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish haqidagi farmon. Xalq so‘zi, 14-may.
4. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlod. 2004.

5. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
6. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
7. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘.G‘ulom, 2015.
8. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T.: Akademnashr. 2014.
9. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom, 2016.
10. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
11. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: Muharrir, 2010.
12. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
14. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
15. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
16. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Universitet, 2005.
17. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: Fan, 2008.
18. “O‘zbek adabiy tanqidi”. Antologiya. – T.: Turon-Iqbol, 2011.
19. Hojiahmedov A. Mumtoz badiyyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
20. Хализев В.У Теория литературы. 4-е изд. – М.: Высшая школа, 2006.

#### **Elektron manbalar**

1. <http://www.literature.uz>
2. <http://www.zivonet.uz>
3. <http://www.natlib.uz>
4. <http://www.zivouz.com>
5. <http://www.turonlib.uz>